

MA'NAVIY TARBIYA JARAYONIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI

Fayzullayev Sharofiddin Erkin o'g'li
Jizzax politexnika instituti,
Oliy matematika kafedrasi assistenti

Annotatsiya

Mazkur tezisdagi ma'naviy tarbiya jarayoni, uning ahamiyati, manaviy tahdidlar, ommaviy madaniyat, milliy qadriyatlar va ularning ahamiyati haqida fikr muloxazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, milliy qadriyat, ommaviy madaniyat, axloq, ma'naviy tahdidlar, mafkura.

Аннотация

В данной диссертации выражены мнения о процессе духовного воспитания, его важности, духовных угрозах, общественной культуре, национальных ценностях и их значении.

Ключевые слова: Духовность, национальные ценности, массовая культура, этика, моральные угрозы, идеология.

Annotation

In this thesis, opinions are expressed about the process of spiritual education, its importance, spiritual threats, public culture, national values and their importance.

Keywords: Spirituality, national value, mass culture, ethics, moral threats, ideology.

Respublikamizda umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyatimizni asoslarini e'tiborga olib ta'lim-tarbiya mazmunini va milliy mafkurani shakllantirib boorish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bunga xalq og'zaki ijodi, pedagogikasi, mutafakkir, ma'rifatparvar pedagog va olimlarning tarbiyaga axloq-odobga doir g'oyalarini o'rgatib komil insonni ishlari amalga oshmoqda. "Kelajak bugundan boshlanadi" deydi dono xalqimiz. Yosh avlodni kelgusi hayoti uni inson qilib ko'rsatuvchi ruhiy va ma'naviy jarayonning mezonini belgilaydi. Bu borada ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish va dunyo talablari darajasiga olib chiqish ta'limni ilg'or tajribalar asosida boyitib borish, yangi pedagogic tajribalar asosida olib boorish ayniqsa muhimdir.

Ma'naviy yetuk va barkamol insonni tarbiyalashda xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, milliy an'analarimizning saqlanishi va mazmunan boyishi, shuningdek madaniyat va san'at, ilm-fan, ta'lim tarbiyaning har tomonlama rivojlanishi alohida kasb etadi. Ta'lim-tarbiya orqali mustaqil fikrlaydigan, erkin, bilimli, bir so'z bilan aytganda, barkamol shaxsni voyaga yetkazish asosiy maqsad qilib belgilanadi. Milliy ma'naviyatimiz an'analarida shaxs ma'naviyatining asosiy jixatlari – iymon, ilm, mas'uliyat, mehrning o'zaro uyg'unligi masalasi ustuvor yo'nalish ekanligi ma'lum. Muayyan tarixiy sabablarga ko'ra Yevropa axloq ilmida aynan shu o'za ro'ltanosiblikka yetarli e'tibor qaratilmadi. Natijada, bugungi kunga ke lib, ushbu mintaqada ma'naviy-axloqiy sohada juda og'ir muammolar kelib chiqmoqda.

"Axloq – ma'naviyatning o'zagi" degan hikmatning mazmuni shundaki, insonning ma'naviy kamolot darajasi uning axloqida eng yorqin shaklda na moyon bo'ladi. Ajdodlarimiz tomonidan ma'naviy kamolot yo'li mukammal ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra, ma'naviyat iymondan boshlanadi, ilm bilan mukammallashadi. "Bizning ulug' ajdodlarimiz, – deb yozadi O'zbekiston Res publikasining birinchi Prezidenti I.Karimov, – o'z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini zamonaviy til bilan aytganda sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash o'rinli deb bilaman". Axloq inson hayotida o'z-o'zini idora qilish me'yorlarini, boshqalar bilan munosabatda bo'lish madaniyati halol to'g'ri turmush kechirish mezonlarini belgilaydi. Aynan shu tufayli, ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi har bir shaxsda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish hamdir. Mustaqillikning dastlabki yillarida diniy ekstremizm, terrorizm, buyuk davlatchilik shovinizmi kabi mafkuraviy tahdidlar yaqqol ko'zga

tashlangan bo'lsa, bugungi kunda ular qatoriga "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi individualizm, kosmopolitizm, giyohvandlik, ahloqsizlik va boshqa shu kabi illatlarni o'z ichiga qamrab olgan g'oyalar ma'naviy-ahloqiy tahdidlar sifa tida mamlakatimizga xavf tug'dirmoqda, ya'ni "Yangi mafkuraviy hudud"ga egalik uchun kurash faol va ko'p qirrali bo'lib qolmoqda. Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. G'oyalar ham ushbu ja rayon tufayli yer kurrasi bo'ylab tez tarqaladi. Natijada ma'lum davlatlar, siyosiy, moliyaviy kuchlar manfaatlariga xizmat qiluvchi turli mafkuraviy markazlar ta'siri kuchli sezila boshlaydi. Bunday sharoitda mustaqil erkin fikrga, kuchli e'tiqodga ega bo'lmagan inson ochiq yoki yashirin mafkuraviy tahdidlarga bardosh berolmaydi. Bunday tahdidlardan yoshlarimizni, yurtdoshlarimizni himoya qilish, ularga qarshi kurashishda ma'naviy immunitetini yanada kuchaytirish muhim ahamiyatga egadir. Shu o'rinda, avvalo ma'naviy-axloqiy immunitet tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, uni quyidagicha ta'riflash mumkin: "Ma'naviy-axloqiy immunitet – bu insonlarni turli xil ma'naviy, mafku raviy illatlar, xavf-xatar va tahdidlardan himoya qilishga, ularni ana shun day illatlarga qarshi kurashishga qaratilgan yuksak axloqiy, ilmiy, siyosiy qadriyatlarni o'zida ifoda etuvchi ijtimoiy-falsafiy tushunchadir". Ushbu ta'rifga e'tibor beradigan bo'lsak, unda axloqiy, ilmiy va siyosiy qadriyatlar muhim element ekanligini guvohi bo'lamiz. Yoshlarimiz qalbi da vatanparvarlik, yaxshilik, ezgulik, imyon-e'tiqod, vijdon, adolat, mexnat sevarlik, insonparvarlik, oilaparvarlik, mehr-muhabbat, insof va diyonat, hayo va ibo kabi tuyg'ularni chuqur ildiz otishi orqali insonga xos bo'lma gan illatlarga, "Ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi tahdidlarga qarshi tura oladigan immunitet hosil qilishimiz mumkin. Axloqiy mafkuraviy immunitetni xalqimizning boy tarixiy merosi, muqaddas dinimiz urf-odatlarimizga asoslanib shakllantirishni I.Karimov shunday ta'kidlaydi: "Biz ham farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, otabobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tar biyalash uchun, ta'bir joiz bo'lsa, avvalo ularning qalbi va ongida mafku raviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur". Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Mafkura sohasida bushliq, degan narsaning o'zi xech qachon bo'lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan to'xtamaydi. Demak, unga doimo ma'naviy oziq, kerak. Agar shu oziqni o'zi yashayotgan muhit dan olmasa yoki bu muhit uni qoniktirmasa, nima buladi, aytinglar? Bun day ozikni u asta-sekin boshqa joydan izlaydi. Shunga yo'l bermasligimiz kerak. Mana, gap nima haqida ketyapti! Buning uchun o'zini jamiyatimiz, yoshlarimiz ma'naviyati, g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas'ul deb bilgan insonlar, bu – mahalla yoki diniy tashkilotlar bo'ladimi, xuquq-tarti bot idoralari xodimlari yoki katta ta'sir kuchiga ega ijodkor ziyolilar bo'lad imi, ularning barchasi ayniqsa faol bo'lislari lozim". Shu ma'noda, bugun jamiyatning barcha sohalarida ma'naviyat bilan boglik, ishlarni yuqori darajaga ko'tarish asosiy vazifalardan biri qilib bel gilanganligining o'zi ahloqiy-tarbiya ishlari va uni tashkil etish qanchalik zarurat ekanini ko'rsatib beradi. Darhaqiqat, xalqimizning insonparvarlik va mehr-oqibatga yo'g'rilgan shunday qadriyatlari borki, u qadriyatlar bu gun millat doirasidan chiqib, umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tarilib borayotganiga dunyo guvoh bo'lmoqda. Ayni vaqtda ma'naviy-axloqiy tah didlarni bartaraf etishda axloqiylik ilmiy salohiyat bilan uyg'unlashganda yanada kuchliroq ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

Hozirda muammolarning eng asosiysi – jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitini takomil lashtirish masalasi bo'lib, "ma'naviy muhit odamlarning ruhi va kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi". Jamiyat ma'naviy-ahloqiy muhiti bir tomondan shaxsning axloqiy voya ga yetishida ijtimoiy makon xisoblanadi, ikkinchi tomondan shaxsning ax loqiy faolliги natijasida takomillashib boradi. "Jamiyatning ma'naviy-axloqiy muhiti odamlarning o'zaro munosabat lari va o'zaro hamkorligining natijasidir". Shu nuqtai nazardan, har qanday muhit kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning majmui bo'lib, bevosita xalqimizning axloqiy madaniyatiga daxldor masaladir. Ma'naviy-axloqiy muhitning shakllanishida shaxs va maslakdosh shaxslarning ittifoqi, ahilligi muhim o'rin tutadi. Chunki jamiyat "shaxslarning uyushgan majmuidir". Shu ma'noda, ma'naviy-axlo qiy muhitning shakllanishida shaxs komponenti muhim o'rin

tutadi. Ayni paytda, ma'naviy-axloqiy muhit jamiyatning rivoji bilan uyg'un holda takomillashib boradi. Shaxs va jamiyat munosabatlari oralig'ida ma'naviy-axloqiy muhit bog'lovchi rolini o'ynaydi. Bu rol shaxsga ham, jamiyatga ham barobar ta'sir qilish qonuniyatiga ega. O'zbekistonning stratejik maqsadi yuksak ma'naviyatli avlodni tarbiyalashdir. Ushbu maqsad salbiy, destruktiv omillarni bartaraf etib, ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirish uchun zarur ijobiy, yaratuvchanlik omillarini ko'paytirishga undaydi. Chunki, "Inson aynan ijtimoiy muhitda o'z ehtiyojlarini qondirish va o'z imkoniyatlaridan foydalanish yo'lini topadi. U aynan shu yerda o'z his-tuyularini, tabiat ato qilgan samimiylilik, do'stlik mehribonlik, bag'rikenglik va iztirob chekish fazilatlari ko'rsatadi". Jamiyatda ijobiy va salbiy omillarning tarkib topishi yoki odamlarni ularning ta'siriga tushib qolishi muayyan muhitda ro'y beradi. Ularning mikro, makro va mezo darajalari mavjud. Oila muhiti ota-ona va farzandlarning aynan bir sharoitda yashab, o'zaro iqtisodiy, huquqiy, reproduktiv va ma'naviy-axloqiy munosabatlarga kirishishidan shakllanadigan muhitdir. Oila muhiti jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitining birlamchi neizidir. Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli an'analar: halollik, rostgo'ylik, ornomus, sharm-hayo, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar eng avvalo, oilada shakllangan. Millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaning o'rnini beqiyos. Insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari oilada shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy-axloqiy tushuncha, mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgu lik, olijanoblik va mehr-oqibat, ornomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oilada qaror topadi. Bu muhitning o'z hududi, qonun-qoidasi bor. Bunda ko'plab mikro muhit an'analari, urf-odatlar, ma'naviy-axloqiy me'yorlar sayqal topadi. Oilada, ya'ni muayyan mikro muhitdagi sog'lom turmush tarzi va ma'naviy axloqiy munosabatlar bilan birgalikda boshqarish, nazorat, yo'naltirish, jazolash kabi axloqiy vazifalar ham bajariladi. Xullas, yosh avlodning axloqiy kamol topishida oilaning o'rnini va roli benihoya katta.

Ta'kidlash lozimki, milliy jamiyatning ma'naviy-axloqiy muhitini ta'sis etishda eng maqbul yo'lni tanlash lozim bo'ladi. Chunki milliy qadriyatlar o'ta ustuvor darajada qabul qilinsa, jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitida mahdudlik, xudbinlik va mutaassiblik illatlari paydo bo'ladi. Aksincha, umumbashariy odatlar keskin ustuvorlik qilsa, jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitida milliy qiyofasizlik, o'zlikni yo'qotish va havoyi ideallarga sodiqlik tarkib topadi. Bu muammoni hal qilishda bugungi ijtimoiy fanlar oldida muhim vazifalar turibdi. Biz jamiyatimiz ma'naviy-axloqiy muhitida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'un tarkib topishi tarafdorimiz. Bunday qadriyatlarning eng foydali va insoniy ko'rinishlari yashovchan bo'lib qolishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T.: "Ma'naviyat", 2008 yil. 114-bet.
2. A. Haydarov shaxs kamoloti va milliy-ma'naviy qadriyatlar T.: Muharrir, 2008.
3. Karimov I.A. Vatan muqaddas, baland joy kabi. III jild; T., O'zbekiston, 1996 yil.
4. Ma'naviyat asoslari E. Umarov., M. Abdullaev M-T-2016
5. <https://wikipedia.uz>
6. www.Ziyonet.uz
7. Veb.edu.uz